ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

ISSN 2181-922X 181— *188*

“BOBURNOMA”DA XALQ OG’ZAKI IJODI NAMUNALARI BADIIY TALQINI

Norkulova Shaxnoza[1]

Abstrakt

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek mumtoz adabiyotining eng muhim yodgorliklaridan biri bo‘lib, unda muallifning shaxsiy hayoti, siyosiy kurashlari bilan birga o‘zbek, tojik va boshqa xalqlar og‘zaki ijodining boy namunalari – maqollar, matallar, rivoyatlar, qo‘shiqlar va boshqa folklor unsurlari keng qo‘llanilgan. Ushbu ishda “Boburnoma”da xalq og‘zaki ijodi namunalarining badiiy talqini tadqiq etiladi: Bobur folklor elementlaridan voqealarni ixchamlashtirish, fikrlarni falsafiy umumlashtirish, obrazlarni jonlantirish va matnni estetik boyitish uchun mahorat bilan foydalanadi. Masalan, o‘zbek va tojik maqollarining “irsoli masal” uslubida qo‘llanilishi asarda badiiy vosita sifatida xizmat qiladi, xalq donishmandligini tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘laydi. Maqolada Boburning maqollarni siyosiy-ijtimoiy holatlarni talqin etishdagi o‘ziga xos uslubi, shuningdek, qo‘shiq va rivoyatlarning matnga emotsional ta’sir kuchaytirishdagi roli tahlil qilinadi. Ishning dolzarbligi “Boburnoma”ning xalq og‘zaki ijodi bilan adabiyot o‘zaro ta’sirini ochib berishda, mumtoz merosni zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishdadir. Maqolada matnshunoslik, qiyosiy tahlil va tarixiy-adabiy yondashuvlarga asoslanadi. Natijada, Bobur folklor namunalarini shaxsiy memuar janriga muvaffaqiyatli singdirib, o‘zbek nasrining badiiy imkoniyatlarini boyitgani isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, o‘zbek xalq maqollari,

[1]*Norkulova Shaxnoza* – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.v.b.
E-mail: shaxnoza_norkulova@tues.uz
ORCID ID: 0009-0008-7546-7613
Iqtibos uchun: *Norkulova Sh.* 2025. “*Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini"*. O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik 3: 181-188. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/ZSYK3076

“Boburnoma”da fors-tojik tilidagi maqollar, asarda maqol va unga mushtarak voqealar.

Biz “Boburnoma”dagi o‘zbek xalq maqollari xususida so‘z yuritishga jazm etdik, bu esa asarda tasvirini topgan ayrim voqea-hodisalarning mohiyatini tushunishda kalit vazifasini o‘tashi muqarrar. Qolaversa, ma’lum bir voqea munosabati ila qo‘llangan maqolning tarbiyaviy ahamiyati nechog‘lik darajada qimmatga egaligini anglashda ham qo‘l kelishi mumkin. Chunki Bobur tomonidan keltirilgan har bir maqol sodir bo‘lgan o‘sha voqea-hodisaning mohiyatiga moslik kasb etadi va uning ichki mazmunini ochib berishda xizmat qiladi. “Boburnoma”ning ilk sahifalarida keltirilgan o‘zbek tilidagi maqol she’riy bo‘lib, unda Boburning Samarqandni birinchi bor ishg‘ol etib, so‘ng uni qo‘ldan boy bergan voqealar o‘z aksini topgan:

Bormoqqa ne maskan muyassar,

Turmoqqa ne davlat muqarrar (–B.57).

Boisi Samarqand qo‘ldan ketgan, bu yetmagandek Andijon ham ixtiyordan chiqqan hamda endilikda Xo‘jand va O‘ratepa atrofi bo‘ylab ovoragarchiliklar boshlanadi. Ushbu maqolning boshqa mavjud muqobili ham biz foydalangan “Boburnoma” nashrining havolasida berilgan: “Bormoqqa ne maskane, turmoqqa ne ma’mane”(–B.57).

Keyingi bir maqol Ahmad Tanbal bilan Andijon atrofida bo‘lgan jangdagi sustkashlikka munosabat tarzida aytilgan: “Qopidag‘ini qopmasa, qarig‘uncha qayg‘urur” (–B.67). Bu maqolning mazmuni shuki: “Eshikni vaqtida yopmasang yoki bo‘lishi lozim ishni paytida bajarmasang qariguncha qayg‘urasan, ya’ni pushaymon bo‘lasan”. Ahmad Tanbaldek g‘anim qo‘shinlariga o‘z vaqtida berilmagan ana shu zarba tufayli Bobur keyinchalik bu hodisadan ko‘p aziyatlar chekadi, anduhlar tortadi. Yoki tag‘in Ahmad Tanbalning bir qilig‘i munosabatiga bog‘liq o‘rinli aytilgan maqol ancha e’tiborli, chunki bu maqol Boburning botiniy qayg‘ulariga zimdan ishora qiladi. Boburning o‘sha darbadarlik kezlari Xo‘jand viloyati hokimi Qambar Ali o‘zaro maslahat qilmasdan ishonch yuzasidan Ahmad Tanbal huzuriga – Axsiga boradi. Ahmad Tanbal esa ishonchga qarshi sotqinlik yo‘liga o‘tib, Qambar Alini hibsga olib, uning viloyati Xo‘jand ustiga qo‘shin tortadi. Bobur bu voqeaga monand ushbu mavolni keltiradi: “Inonmag‘il do‘stingg‘a, somon tiqar po‘stungg‘a” (–B.70). Yuqoridagi holatlardan kelib-chiqib aytadigan bo‘lsak, bu maqolga va

uning mazmuniga izoh yoki sharh berish tabiiy ortiqchalik qiladi, desak zarracha mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Boburnoma”dagi boshqa bir maqolga diqqatingizni tortmoqchimiz: “Bizga yetganda saxovat bila mashhur bo‘lg‘on el xasis bo‘lur, muruvvat bila mazkur bo‘lg‘on elning muruvvati unutilar” (–B.73–74). Bu maqol yoki boringki, masal bo‘lsin, aslida Hisor hokimi battol Xusravshoh xususida aytilgan, boisi Xusravshoh ko‘pincha odamning holatiga qarab muomala qiladi, u atrofdagilarni nazar-pisand qilmay qo‘ygan edi. Boburning bu achchiq gaplari bor haqiqat, chunki “Boburnoma”ning ko‘p o‘rnida Xusravshoh tez-tez tilga olinadi va har gal yovuzlik timsoli sifatida talqin etiladi, oxir-oqibat Xusravshohning hayoti fojia bilan xotima topadi. Bobur ayni shu maqolga monand o‘zi tortgan azob-uqubatlarni ifodalovchi bir bayt ham keltiradi va qissadan hissa chiqaradi:

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshiliq?

Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshiliq (–B.74).

Xullas, sarsonlik va sargardonlik, goho teng, goho noteng dushmanlar bilan to‘qnashuvlar, adog‘i yo‘q kurash, oxiri ko‘rinmas qiyinchiliklar, bularning bari Bobur va uning atrofidagilarni g‘oyat toliqtirgan edi. Ana shu sarguzashtlar asnosida, ba’zan u yoki bu voqealarga mos maqollarning Bobur tomonidan ishlatilishi, voqeaning mohiyatini to‘kis anglashda kitobxonga g‘oyat asqotadi. Voqealarga mohiyatan mushtarak keyingi bir maqolni olib ko‘raylik: “tong yovuq va maqsad yiroq” (–B.105) – “tong yaqin va maqsad yiroq”, diqqat bilan qarasangiz, hamma narsa ayon, lekin sarsongarchiliklarning oqibati nima bilan yakun topishini hech kim bilmaydi, deyilmoqda.

Bobur hamisha jiddiy, ya’ni kishini og‘ir xayollarga cho‘mdiradigan maqollarga o‘rin ajratib qolmasdan, balki ba’zan hazil-mutoyibaga ham joy qoldiradi. Chunonchi Bobur Movarounnahrdan tamoman umidini uzib, o‘zga yurtga – Afg‘onistonga uzil-kesil ravona bo‘ladi, tog‘u tosh oshib, dala-dasht kezib yo‘l bosadi. Bobur Afg‘oniston tog‘lari haqida yozadi: “... Afg‘oniston tog‘lari bir yo‘sunluq tog‘lardur. Past-past, o‘ti oz, suyi (suvi) tanqis, yig‘och (daraxt) siz, badnamoy, yaramas tog‘lardur. Tog‘lari ellariga munosib tushubtur, nechunkim, “teng bo‘lmaguncha, tush bo‘lmas”, debturlar” (–B.129). Bu maqol “teng bo‘lmasdan, do‘st bo‘lmas” yoki

“o‘xshatmasdan uchratmas” singari ma’nolar ni kashf etadi, demak atrof muhit inson tabiatiga shubhasiz, ta’sirini o‘tkazar ekan. Ochig‘ini aytsak, bu maqol va unga mushtarak voqea tasviriga mutlaqo izoh yoki sharh taqozo etilmaydi, chunki “Boburnoma” muallifi barcha muammoli savollarga javob berib bo‘lgan. Demak Bobur nechog‘lik dardli damlarda ham hazilga, mutoyibaga, askiyaga, kulgiga moyil bo‘lib, o‘zida shunga kuch topa olgani olqishga loyiq hodisadir. Bobur qo‘shini Kobulni qo‘lga kiritgach, g‘alaba sharafiga mukofotlash bilan bog‘liq voqeada ozgina noroziliklar kelib chiqadi, ya’ni taqdirlashdagi taqsimot ayrimlarga yoqmaydi. Bobur shunda: “dushman ne demas, tushga ne kirmas” (–B.131), degan maqolni keltirishni joiz topadi va maqolning o‘z o‘rnida ishlatilganiga shubha yo‘q. Boburning lashkar va qo‘shin ichida bo‘lib turadigan har xil voqea-hodisalarga shaxsan befarq emasligini, birgina shu maqol misolida bilib olish u qadar qiyin emas.

“Boburnoma”da Boburning ovqatdan zaharlanish voqeasi bog‘liq tafsilotlar hikoya qilinuvchi sahifalar o‘ta ta’sirli jihatlarni namoyon etadi. Bobur zaharlanishdan eson-omon qutiladi, sog‘-salomat qoladi, ziyon-zahmat ko‘rmaydi, yana hayotga qaytadi. Ana shu zaharlanish sababli Bobur o‘lim bilan olishadi va jonning qadrini anglab yetadi, umrning qimmatini bilib oladi: “Jon mundoq aziz nima emish, muncha bilmas edim, ul misra’ borkim:

Kim o‘lar holatqa yetsa, ul bilur jon qadrini” (–B.282).

E’tibor bergan bo‘lsangiz, boshidan o‘tkazmagan kimsa, hech narsaning farqiga bormaydigina emas, balki uning qadriga ham yetmas ekan, shu narsaga to‘qnash kelsagina uning qadrini tushunar ekan. Qarang, inson tabiati naqadar ziddiyatli qutblarni o‘zida tajassum etar ekan va ko‘pincha zarur narsalarga loqayd munosabat ustuvorligi yanada taajjjublanarli! Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida ayrim o’rinlarda ixchamlikka erishish uchun va yana til imkoniyatlarini ochib berish maqsadida folklor namunalariga bot-bot murojaat qiladi. Muallif xalq ommasi o’rtasida keng tarqalgan maqol va hikmatli so’zlarni ustalik bilan ishlatar, ulardan mohirlik bilan foydalanar, bu esa asarlari tilinnng sodda, jonli va obrazli bo’lishiga yordam bergan. Zo’r mohirlik bilan qo’llanilgan maqol va hikmatlardan ba’zi misollar keltiramiz:

“Andijong’a bo’la Samarqandni ilikdin berduk. Andijon ham ilikdin chiqmish edi. Bie g’ofil “azinjo ronda va az anjo monda”

degandek bo’ldi”.

“Qopudag’ini qopmasa, qariguncha qayg’urur”.
“Dushman ne demas, tushga ne kirmas”.
“Inonmag’il do’stungg’a, somon tiqar po’s’ungg’a”.
“Ko’zlarini tuz tutti”.
“Uzrash batar az gunoh” (o’zbekcha muqobili “uzri gunohdan yomonroq”).

“Boburnoma”da muallif “Uzrash batar az gunoh” maqolini quyidagi sabab munosabati bilan keltiradi. Muhammad Shayboniyxon Yahyo Xojadan hamisha hayiqib turardi. Shayboniy Yahyo Xojani va uning ikkita o’g’lini ozod qiladi so’ngra ularning izidan ikkita odamini jo’natadi. U navkarlar Yahyo va uning o’g’illarini yo’lda o’ldiradilar. Buni so’zlagan Bobur “masal borkim” deb yuqorida keltirilgan masalni aytadi.

Yuqorida zikr qilinganlardan ko’rinadiki, olim va shoir Boburmirzo xalq og’zaki ijodi namunalarini inchunun, maqol, hikmatli so’zlarni tanlashda dastlab ularning ijtimoiy mohiyatini nazarda tutgan. Shuning uchun ham Bobur tomonidan keltirilgan maqol, hikmatli so’zlarnnng aksariyati ayniqsa, o’sha davr uchun ilg’or g’oyalarni tashish xususiyatiga egadir. Haqiqatan ham Bobir ularni muvaffaqiyatli ravishda tanlaydi, predmetning mohiyati va katta ijtimoiy masalalar bilan bog’laydi. Shunday qilib, ulardan ko’pincha, ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan muhim xulosalar chiqaradi.

“Boburnoma”da quyidagi fors-tojik tilidagi maqollar ham uchraydi:

1. “G‘ofil az injo ronda va az onjo monda” – “g‘ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan” (oro yo‘lda sarson bo‘lib qolish–B.51).

2. Korhoro ba vaqt boyad just,
Kori be vaqt sust boshad, sust (Ishlar o‘z vaqtida bajarilishi kerak, vaqtida bajarilmagan ish sust bo‘ladi, sust –B.67).

3. “Uzrash batar az gunoh” – “Uzri gunohidan yomonroq” (–B.73).

4. “Gov gum shavad, chi kor kunem” – “Agar ho‘kiz yo‘qolsa, nima qilamiz?” (Govgum – ikki ma’noga ega, ya’ni ho‘kiz yo‘qolsa birinchi ma’nosi, govgumning ikkinchi ma’nosi qorong‘u tushsa, –B.87).

5. “Darvozai shahrro tavon bast, natvon dahani muxolifon bast” – “Shahar darvozasini yopib bo‘ladi-yu, dushman og‘zini yopib bo‘lmaydi” (–B.131). Qizig‘i, bu maqol yuqorida

keltirilgan: “Dushman ne demas, tushga ne kirmas” maqoli bilan yonma-yon beriladi.

6. “Dah darvesh dar gileme bixusband va du podshoh dar iqlime nagunjand” – “O‘n darvish bir gilamga sig‘ib yotarlar, ikki podshoh bir iqlimga sig‘maydi” (–B.165).

7. “Marg bo yoron surast” – “Do‘stlar bilan birgalikdagi o‘lim to‘ydir” (–B.175).

“Boburnoma”da uchrayotgan maqollarning ahamiyati beqiyos bo‘lib, bu maqollarni o‘rganish, uni tahlil etish yosh avlodni tarbiyalashda o‘ziga xos qirralari bilan alohida ajralib turadi. Avvalo bu maqollar uzoq asrlar osha ajdodlar tilida sayqal topib kelgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham o‘z qimmatini saqlab kelayotgani maroqlidir. Maqol voqea ta’kidini kuchaytirish uchun, hodisadan olingan taassurotni yanada bo‘rttirish maqsadida qo‘llanadi, bu esa fikr ta’sirini ta’minlash xizmatini o‘z zimmasiga oladi. Maqol voqea mazmunini boyitishda, mohiyat talqinini chuqurlashtirishda, uni behad teranlashtirishda va tasvirga badiiylik bag‘ishlashda ulkan ahamiyaga ega.

Adabiyotlar

Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi: P.Shamsiev. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.

Мирзаев Т. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

Madayev O. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – T.: “Mumtoz so’z”, 2010

Саримсоқов Б., Мақоллар / Ўзбек фольклори очерклари. 1-жилд. – Т.: Фан, 1988.

Ўзбек халқ мақолари. – Т.: Фан, 1978.

Саъдий Абдурахмон. Чиғатой ва ўзбек адабиёти ва шоирлари. // Инқилоб, 1923.

Содиқов Қ. XI–XIV асрлар уйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент: 1992. – 230 б.

Мирзоҳидова Л.Б. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадийяти. Филология фанлари б фалсафа доктори (PhD) дисс автореф. – Самарқанд: 2018. – Б. 8.

Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент: 2006.

Умуров Ҳ. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004.

Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: “Bayoz” нашриёти, 2013. – 114 б.

ARTISTIC INTERPRETATION OF EXAMPLES OF FOLK ORIGIN IN "BABURNAMA"

Norkulova Shaxnoza[1]

Abstract

This article examines the work of Zahiriddin Muhammad Babur, “Boburnoma,” one of the most important monuments of Uzbek classical literature, which, along with the author’s personal life and political struggles, widely uses rich examples of the oral culture of Uzbek, Tajik and other peoples - proverbs, sayings, tales, songs and other folklore elements. This work examines the artistic interpretation of folk oral culture in “Boburnoma”: Babur skillfully uses folklore elements to condense events, philosophically generalize thoughts, enliven images and aesthetically enrich the text. For example, the use of Uzbek and Tajik proverbs in the “hereditary parable” style serves as an artistic tool in the work, inextricably linking folk wisdom with historical events. The article analyzes Babur’s unique style of interpreting proverbs as political and social situations, as well as the role of songs and tales in enhancing the emotional impact of the text. The relevance of the work lies in revealing the interaction of the folk oral creativity of “Boburnoma” with literature, in studying the classical heritage from the perspective of modern literary criticism. The article is based on textual studies, comparative analysis, and historical-literary approaches. As a result, it is proven that Babur

[1]*Norkulova Shaxnoza* – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.v.b.
E-mail: shaxnoza_norkulova@tues.uz
ORCID ID: 0009-0008-7546-7613
For citation: *Norkulova Sh.* 2025. *“Artistic interpretation of examples of folk origin in "Baburnama".* Uzbekistan: language and culture. Folklore. Dialektology 2: 181-188. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/ZSYK3076

successfully incorporated folklore samples into the genre of personal memoirs, enriching the artistic possibilities of Uzbek prose.

Key words. "Boburnoma", Uzbek folk proverbs, Persian-Tajik proverbs in "Boburnoma", proverbs in the work and events associated with it.

References

Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi: P.Shamsiev. –Toshkent: Yulduzcha, 1989.

Мирзаев Т. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: "Mumtoz so'z", 2010

Саримсоқов Б., Мақоллар / Ўзбек фольклори очерклари. 1-жилд. – Т.: Фан, 1988.

Ўзбек халқ мақолари. – Т.: Фан, 1978.

Саъдий Абдурахмон. Чиғатой ва ўзбек адабиёти ва шоирлари.- // Инқилоб, 1923.

Содиқов Қ. XI–XIV асруйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент: 1992. –230 б.

Мирзоҳидова Л. Б. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадийяти. Филология фанлари б фалсафа доктори (PhD) дисс автореф. – Самарқанд: 2018. – Б. 8.

Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент: 2006.

Умуров Ҳ. Адабиётшуносликка кириш.– Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com